


Qoraqalpog'iston Respublikasi

Statistika boshqarmasi



2024- YIL YANVAR-DEKABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR






2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 20530,9 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 79,9 % i yoki 16385,9 mlrd so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 20,1 % yoki 4145,0 mlrd so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023- yildagi ulushiga nisbatan 6,7 % punktga kamayib, 12,9 % ni yoki 2630,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 17900,0 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 87,1 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,7 % punktga ko'paydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so'm



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 10930,9 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 53,2 % ini tashkil etdi. Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2657,4 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 102,0 % ni tashkil etib, 12,9 % i o'zlashtirildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,9 % i yoki 2235,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20530,9	145,6	100,0
tumanlar:			
Amudaryo	598,2	143,6	3,1
Beruniy	508,8	133,8	2,5
Bo'zatov	63,2	55,8	0,3
Qorao'zak	6461,3	210,6	36,6
Kegeyli	124,6	90,2	0,6
Qo'ng'iro't	4839,3	199,7	17,4
Qonliko'l	209,4	115,1	1,1
Mo'ynoq	1768,2	134,0	9,3
Nukus	278,0	75,7	1,9
Taxiatosh	173,3	149,6	0,8
Taxtakopir	125,3	105,9	0,4
To'rtko'l	700,9	88,8	3,5
Xo'jayli	322,3	92,9	1,6
Chimboy	423,5	132,7	1,9
Shumanay	128,1	95,8	0,7
Ellikqal'a	511,7	89,3	2,5
Nukus sh.	3294,8	100,2	15,7


Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar 2023- yilga nisbatan 2,4 martaga oshdi. Bunday yuqori o'sishni 2022-2027- yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) bo'yicha dastur, 2020-2030- yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish va boshqa investitsiya loyihalari bilan izohlash mumkin.

Qurilish-montaj ishlari



Mashina, uskuna, inventar


Boshqa xarajatlar



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariga 9982,2 mlrd so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 48,6 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventarlar bo'yicha 9459,1 mlrd so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 46,1 %) va boshqa xarajatlarga 1089,6 mlrd so'm (5,3 %) o'zlashtirildi.



Yangi qurilish



Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya



Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Shumanay tumanida kuzatildi – 74,4 % yoki 95,3 mlrd so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qorao'zak tumanida kuzatilib, 36,9 % ni yoki 2384,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Qorao'zak tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 60,1 % yoki 3886,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 12122,4 mlrd so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 59,0 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Qorao'zak tumanida kuzatilib, u 97,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 6576,5 mlrd so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 32,0 % ini tashkil etdi. Qolgan 9,0 %, ya'ni 1832,0 mlrd so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha yangi qurilish ishlariga ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSİYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 9662,2 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 47,1 % i o'zlashtirilgan.

Tog'-kon sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


**TOG'-KON SANOATI
BILAN BOG'LIQ BOSHQA
FAOLIYAT**
26,6 mlrd so'm
ulushi 0,2 %

**METALL RUDALARINI
QAZIB OLISH**
5197,8 mlrd so'm
ulushi 25,3 %

**XOM NEFT VA TABIIY GAZ
QAZIB OLISH**
4437,8 mlrd so'm
ulushi 21,6 %

Ishlab chiqarish sanoatida jami 2280,6 mlrd so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 11,1 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 4,3 % i yoki 872,8 mlrd so'mi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd so'm

	Jami	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlan- magan boshqa investitsiya va kreditlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14362,8	2235,9	1196,0	10930,9
tumanlar:				
Amudaryo	354,2	62,5	141,2	150,5
Beruniy	243,8	-	95,8	148,0
Bo'zatov	7,9	-	-	7,9
Qorao'zak	6368,1	1100,3	65,3	5202,5
Kegeyli	27,7	20,5	-	7,2
Qo'ng'iro't	3704,2	803,6	627,8	2272,8
Qonliko'l	74,8	12,9	-	61,9
Mo'ynoq	1485,2	-	-	1485,2
Nukus	63,1	2,5	59,6	1,0
Taxiatosh	55,9	-	17,3	38,6
Taxtakopir	51,1	6,2	-	44,9
To'rtko'l	148,9	83,2	28,0	37,7
Xo'jayli	31,7	8,3	0,7	22,7
Chimboy	149,0	7,1	-	141,9
Shumanay	23,0	8,8	-	14,2
Ellikqala	192,0	-	25,5	166,5
Nukus sh.	1382,2	120,0	134,8	1127,4

2024- yil yanvar-dekabr oylarida 14362,8 mlrd so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 70,0 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 8158,3 mlrd so'mni tashkil etdi va qolgan 6204,5 mlrd so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 13166,8 mlrd so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 1196,0 mlrd so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 79,9 % li punktga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi

